

## MA'NO KO'CHISH TURLARINING BADIY ASARLARDAGI O'ZIGA XOSLIGI

**Tursinboyeva Gulnoza Sobirjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi 106-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so'zlarda 2 xil ma'no turi borligi va ularning tahlili bo'yicha misollar orqali tushuntirilgan. Ma'no ko'chish turlaridan eng ko'p uchraydigan metafora va metonimiya haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, bu ma'no ko'chish turlari badiiy asarlarda qanday holatlarda kelishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ma'no ko'chish, metafora, metonimiya, predmet, badiiylik, matn, tashqi o'xshashlik

**Аннотация:** В этой статье объясняется, что в словах существуют два разных типа значений, и проводится их анализ на примерах. Дана краткая характеристика метафоры и метонимии — наиболее распространенных видов передачи смысла. Кроме того, было проанализировано, как происходят эти виды передачи смысла в художественных произведениях.

**Ключевые слова:** передача смысла, метафора, метонимия, предмет, художественность, текст, внешнее сходство.

**Annotation:** In this article, it is explained that there are 2 different types of meaning in words and their analysis through examples. A brief description of metaphor and metonymy, the most common types of transfer of meaning, is given. In addition, it was analyzed how these types of meaning transfer occur in artistic works.

**Key words:** transfer of meaning, metaphor, metonymy, object, artistry, text, external similarity

“Qoshlari kamon, kipriklari o'q, lablari g'uncha, tishlari inju, oy yuzli, gulyuz, pariroy bu kabi gozal so'zlarni faqatgina o'zbek adabiyotida ko'rishimiz mumkin. Chunki bu so'zlardan foydalanish bu kabi uslub o'zbek shoirlariyu, o'zbek yozuvchilariga xosdir.

So'zlarda ikki xil ma'no turi mavjud bo'lib. Birinchisi o'z ma'no, ikkinchisi esa ko'chma ma'no deb yuritiladi. Birinchi ma'no turiga keladigan bo'lsak, o'z ma'no so'zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir manoni anglatadi bu o'z ma'noli so'z deyiladi. Agar yakka holdagi ma'nosi bilan matn ichidagi ma'nosi ikki xil bo'lsa unda bu so'z matn ichida ko'chma ma'noda qo'llanayotgan bo'ladi. Qanday qilib so'zning o'z ma'noda va ko'chma ma'noda qo'llanilayotganini topishimiz mumkin degan savolga biz shunday deb javob beramiz: bu juda onson matn ichidagi so'larni yakka holda qo'llab ko'ramiz bunda yuqorida aytganimizdek matn ichidagi so'z yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir xil ma'no anglatadi o'z ma'noda qo'llanilayotgan yoki yakka holda boshqa ma'no anglatadi ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan bo'ladi.

Metaforada bir-birilariga o'xshash predmet va ularning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlar belgilari solishtiriladi. Masalan: Ra'no Anvarga xat yozib yuboradi va gapning qolganini Fuzuliydan o'qirsiz, deydi. (A. Qodiriy. —Mehrobdan chayon). Bunda muallifning nomi uning asari o'rniga ko'chgan nomi bilan qo'llanadi. Yoki “Darsdan so'ng A. Qodiriyning olish uchun do'stimning uyiga bordim” gapida ham asar muallif nomi bilan qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Metafora va uning uslubiy xususiyatlarini o'rganish jarayonida badiiy asarlardan olingan misollarni tahlil qilish o'quvchilarni o'ylashga, mushohada yuritishga o'rgatadi.

Senga nimadir aytmoqchi bo'lar,

Sog'inchdan titranib manguilik labi. (U. Azim)

Novdalarining titroq tanida

Sirg'anadi shamolning qo'li. (U. Azim)

Men ko'cha kezaman. Yog'a boshlar qor

Oppoq qo'lchalarin yelkamga tashlab. (U. Azim)

Keltirilgan misollardagi metaforalar asosan tashqi o'xshashlik asosida inson a'zolarining nomlarining tabiat hodisalariga ko'chishi natijasida hosil bo'lgan bo'lib, ularni topish, badiiylikni ta'minlashdagi o'rning nimadalgini aniqlash o'quvchilarga topshiriq sifatida beriladi, ularning fikrlari tinglanadi. Bunday topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning nutqini oshirishga xizmat qiladi. Badiiylikni oshirishda an'anaviy metaforalardan ko'ra xususiy-muallif metaforalarning ahamiyati katta ekanligini aytib o'tish, o'quvchilarga hayvon nomlari, o'simlik nomlari asosidagi ko'chishlar haqida ham ma'lumot berib o'tish lozim.

Barcha haq ishida bo'ling salomat

Yog'sa har yondan tavqi-malomat

Ezgu ishingizni ettiring davom

Yaratgan qo'llagay sizlarni mudom.

Kim sherik bor desa agar Oллоhga,

Shubhasiz, botgaydir katta gunohga.

Nohaqdan bir inson qonini to'kmoq

Gunoh dengiziga mayni cho'kmoq.

Ota-onasiga kimki bo'lsa oq,

Bu ham og'ir gunoh bo,,lgay mutloq.

Agarda yolg'ondan bersa guvohlik

Uning ham gunohin kechirmas Holiq.

Shu to'rtta gunohdan kim bo'lsa forig,,

Bilingki, ularning manglayi yorug,,

Yuqoridagi she'riy parchadan quyidagi ma'no ko'chish turlarini aniqlash mumkin.

1. "tavqi-malomat yog,,moq" – bu metafora usulida ma'no ko'chishi hisoblanadi. Tavqi-malomatda qolish, uning haddan ziyoq ko'p bo'lishi yomg'ir yog'ishiga qiyosan ishlatilyapti.

2. "gunohga botmoq" iborasi bo'lsa juda ko'p katta gunohda qolish ma'nosini beruvchi "botmoq" so'zi bilan berilyapti, bu ham metafora usulida ma'no ko'chishi hisoblanadi.

3. "og'ir gunoh" gunohning kattaligiga qarab, uni ifodalash uchun "og'ir" so'zidan foydalanilyapti, bu ham metafora usulida ma'no ko'chishi hisoblanadi.

Yuqoridagi she'riy parchadan olingan misollardan ko'rishimiz mumkinki, metafora ham asarning ta'sirchan va ekspressivligi uchun katta xizmat qiladi. Metafordan unumli va to'g'ri foydalanish uslubiy jihatdan juda katta ahamiyat kasb etadi. Metafora kabi metanomiya ham o'quvchi nutqining ta'sirchan, hissiy Bo'yoqlarga boy bo'lishida juda muhim vosita sanaladi. Navoiyni oldim qo'linga deydilar. Navoiyni qo'lga olib bo'ladimi? U buyum emas-ku qo'lda ko'taradigan!? Bedilni o'qir edim deydilar. Bedil kitob emas-ku!? Samovarda osh yedik deymiz. Samovar ustiga o'tirib osh yeb ko'ring-chi, kuyib qolasiz...

Adabiyotimizda yirik iste'dodli adib va shoirlar bisyordir. Har qanday ijodkorning badiiy mahorati u yaratgan badiiy asarlar tilida namoyon bo'ladi. Adibning hayotdagi voqea-hodisalariga munosabati, o'ziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar ko'ra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni go'zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana ko'pgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz so'z boyligiga ega bo'lishi, so'zning ta'sir qudratini his eta olishi, har bir so'zni ma'no noziklarigacha ilg'ab olishi so'z o'yinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida o'rin tutadi. Buni o'zbek adabiyotida pandnoma asarlar muallifi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida bunday xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijodkorning badiiy mahoratini boshqalardan ajratib turadigan yorqin qirralaridan biri ham tilidagi o'ziga xoslikdir. O'z davrining yetuk ijodkori

bo'lgan adibning adabiyotda tutgan o'rni beqiyosdir. Uning asaridada ilgari surilgan g'oyalar va so'z qo'llash yo'sinlari etirofga sazovordir. "Qutadg'u bilig"ni o'rganish, uning ijod qirralarini ochish, tahlil qilish, uning fikrlarini yana bir bor ilg'ashimizga asos bo'ladi. "Qutadg'u bilig"da miqyosli tafakkur madaniyati va tahlil mahorati bilan yuksak ma'naviy intilishlar va badiiy did birlashib ketgan. Ishimizning birinchi bobida "Qutadg'u bilig" asarida qo'llangan ayrim so'zlarning etimologiyasini tahlil qildik. Dastlab asardagi ayrim so'zlar(bek, dengiz, yosh, ol, ipor,och,qo'y, achchiq,ikki,orzu)ning tarixiy asoslari haqida fikr yuritdik. Asardagi o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar haqida to'xtaldik.O'z qatlamga mansub ( bek, dengiz, yosh, ol, ipor,och,qo'y, achchiq,ikki,orzu) va arab tilidan(Sabo, jafu, vafo, ofiyat, davlat,masal)o'zlashgan so'zlar, fors-tojiktilidan (tilak)o'zlashgan so'zlar va ularning uslubiy xususiyatlarini tahlil qildik.

Xulosa qilib aytganda, ma'no ko'chish turlari badiiy asarlarda o'ziga xoslik bilan ifodalangan va shuningdek, muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qo'llanma bo'lib hisoblanadi. Bu turlar asarlar ustida tahlil va ta'riflar berishda juda muhim rol o'ynaydi va o'ziga xoslik bilan ma'nolarni ifodalaydi. Badiiy asarlardagi ma'no ko'chish turlari misollar, tashqi tavsiflar, analogiyalar, tahlillar, taqsimotlar, talaffuzlar, ta'vil va boshqa usullar orqali amalga oshiriladi. Bu turlarning har biri o'ziga xoslik bilan ma'nolarni ko'rsatadi va asar ustida o'rganish va tushunishga yordam beradi. Ma'no ko'chish turlari badiiy asarlardagi ifodalar va ma'nolarni chuqurroq tushunish va anglash uchun juda muhimdir. Ular asar ustida o'ziga xoslik bilan ma'nolarni ta'riflashda yordam beradi va o'qituvchilar, o'quvchilar va tadqiqotchilar uchun foydali bo'ladi. Badiiy asarlarda ma'no ko'chish turlari juda muhimdir, chunki ular asar ustida tahlil qilish, ma'nolarni anglash va tushunishga yordam beradi. Bu turlar o'ziga xoslik bilan ma'nolarni ifodalaydi va asarlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.B. Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent "Tafakkur bo'stoni",2018.
2. H. Ne'matov, R. Rasulov. O'zbek sistem leksikologiyasi asoslari. -Toshkent. "O'qituvchi", 1995.
3. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent. "Talqin", 2005.
4. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, L. Raupov, M. Qurbonov, D. Yo'ldoshev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2020.